

O`ZBEKISTON BADIYIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMCHILIK VA
DIZAYN INSTITUTI
“TASVIRIY SAN`AT” FAKULTETI
“MAHOBATLI RANGTASVIR” KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
 Fakultet dekani
 _____A.A. Yusupov
 “ ” _____2018-yil

5150800 – “Rangtasvir (Mahobatli rangtasvir)” ta`lim yo`nalishi kunduzgi bo`lim

05-14- guruh talabasi

Kuchkarova Negina Ixtiyor qizi

“Buxoro navqiron va ko`hna zamin” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Mahobatli
 rangtasvir” kafedrası
 kata o`qituvchisi
 _____N.Sh. Shoabdurahimov

“Himoyaga ruxsat etilsin”
 “Mahobatli rangtasvir”
 kafedrası mudiri
 _____Sh.R. Jumaniyozov
 “ ” _____2018-yil

TOSHKENT – 2018 yil

Mazkur Bitiruv malakaviy ishi “Mahobatli rangtasvir” kafedrasining 201__ yil _____ dagi №____ sonli va Tasviriy san`at fakulteti Kengashining 201__ yil _____ dagi majlisida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi: Jumaniyozova .F

Himoya 2018-yil _____ soat _____ da o`tkaziladi.

Manzil: Toshkent shahri Mirobod tumani Mironshoh 123-uy.

MUNDARIJA

Kirish.....	9
--------------------	----------

ASOSIY QISM.

I BOB. MAHOBATLI RANGTASVIR SAN`ATI TARIXI VA RIVOJI

1.1. Mahobatli rangtasvir san`ati tarixi.....	12
1.2. Mahobatli rangtasvir san`ati va arxitekturaviy yechimning o`zaro bog`liq jihatlari.....	14
1.3. Mahobatli rangtasvir san`atining hozirgi kunda tutgan o`rni va zamondosh musavvirlar.....	17

II BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHNING BAJARILISH BOSQICHLARI

2.1. Buxoro qadimiy va mo`tabar shahar.....	26
2.2. Buxoro buyuklar bitigida.....	31
2.3. “Buxoro navqiron va ko`hna zamin” kompozitsiyasining ishlanish bosqichlari va o`ziga xos usuli.....	33

3. ILLYUSTRATSIYALAR.....	50
----------------------------------	-----------

XULOSA.....	52
--------------------	-----------

ATAMALAR.....	54
----------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	55
--	-----------

KIRISH

"Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim."

Shavkat Mirziyoyev.

Uch ming yildan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan shaharlardan biri. Qadimdan ilmu ma'rifat, madaniyat maskani bo'lgan bu go'sha ta'rifi butun olamga yoyilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Yurtboshimiz rahnamoligida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa tarixiy-memoriy obidalarni asrash, ularni kelgusi nasllarga yetkazish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal'asi kabi qator asori atiqalar ta'mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Bevosita Prezident I. Karimov tashabbuslari bilan tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod etildi.

Ayniqsa, Buxoro madaniy markazi bunyodkorlik ishlari doirasida alohida o'rin egallaydi. Prezidentimiz tashabbusi va g'oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar – 700 o'rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr, ular o'rtasida esa “Ko'hna va boqiy Buxoro” monumentidan iborat.

Madaniy markaz turli burchaklaridan boshlangan yo'laklar balandligi 18 metrli “Ko'hna va boqiy Buxoro”¹ monumentiga kelib tutashadi. Monumentni taniqli haykaltarosh, O'zbekiston san'at arbobi Ilhom Jabborov ishlagan.

¹ “Ko'hna va boqiy Buxoro”-2010-yil birinchi Prezident I.A. Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan.

Obida zinapoyalari orqali ko'tarilganda, diqqatingizni monument tevaragida zarhal koshinlar tortadi. Unda Buxoroning tuprog'i oltinga teng, degan ma'no mujassam chunki Buxoro azaldan oltin makoni bo'lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu yerdan topilgan. Ayni chog'da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak degan g'oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Regariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, xalqimizning boshqa asl farzandlari yetishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida "Ilm o'rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hadis o'zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da'vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma'rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas.

Xuddi shu yerda Buxoroning ko'hnaligidan darak berguvchi me'moriy yodgorliklari —Mag'oki Attor, Ismoil Somoniy, Chorbakr, Minorai Kalon, Ark qal'asi, Labihovuz, Chorminor, Bahouddin Naqshband maqbarasi boshqa qator obidalari tasviri toshda muhrlangan. "Dil va yoru, dast ba kor"—ulug' pir Bahouddin Naqshbandning monumentga bitilgan bu hikmati donishmand ajdodlarimizning qoldirgan ulkan ma'naviy merosning o'ziga xos namunasi sifatida ko'zga tashlanish barobarida bugungi avlodni mazkur da'vatga amal qilishga chaqiradi.

Eskizlari bevosita Prezidentimiz g'oyalari asosida tayyorlangan monument markazida uch avlod—baxtiyor yosh oila—ota, ona va bola, nihol o'tqazayotgan bobo va nabira hamda uy qurayotgan ota va o'g'ilning barefli haykallari aks ettirilgan. Bunda chuqur falsafa bor: hayot adabiy, umr o'tkinchi, insonning ezgu

amallari mangu qoladi, bu dunyoda inson ezgu ishlar qilmog'i, farzandlari kelajagini, el-yurtining ertasini o'ylamog'i kerak.

Obida tepasiga o'rnatilgan balandligi 5 metr, vazni 32 tonnadan iborat, aylanib turuvchi ulkan Yer shari uzoq-uzoqlardan ko'zga tashlanadi. Unda O'zbekistonimiz xaritasi tasvirlangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egalladi, degan teran ma'no ifodalangan. Ushbu obida milliy ma'naviyatimizning monumental ifodasidir.

Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda qator teatrlar rekonstruktsiya qilinib, ijodiy jamoalar ixtiyoriga topshirilgan edi. Buxoro davlat musiqali drama teatrining madaniy markazdagi muhtasham binosi so'nggi chorak asrda mamlakatimizda poydevordan qurilgan yagona teatrdir. San'atkorlar va tomoshabinlarning bir necha avlodi armonlari ro'yobga chiqib, barpo etilgan bu teatr o'zining ko'rkamligi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va yoritkichlari bilan jihozlangani, unda yaratilgan qulay shart-sharoitlari bilan Markaziy Osiyodagi eng go'zal san'at maskanidir.

Mavzuning dolzarbligi. Qadimiylkda va mashhurlikda dunyoning manaman degan qadimiy shaharlari bilan bellasha oladigan bu ko'hna va navqiron shahar Buxoro uzoq va boy tarixga egadir. Uning ming yillik tarixga ega har bir qarich yeri, ko'zni quvnatadigan binolari doimo sayyohlarni e'tiborini tortgan bo'lsa, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi yuzlab siymolar ilm ahlining qiziqishiga sabab bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroga milloddan avvalgi I ming yillikda asos solingan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara - hayvonot va o'simlik dunyosi betakror ko'l va oqar suvlarga boy bo'lib, tarixchi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida aytib o'tilgan.

Mahobatli rangtasvir san'atida ijod qilgan rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishi, inson va uning hayotiy harakterini, ruxiy dunyosi, psixologiyasi, rassomlar ilmiy faoliyatida asosiy omil bo'lib insonlar obraziga qaratilgan,

mahobatli rangtasvir har bir jihatdan o`rganish uni tadbiq qilishi nihoyatda muhimdir. Buxoro doim O`zbekistonnig eng go`zal maskanlaridan biri bo`lgan bo`lib ham qoladi.

Ushbu mavzu natijasi bugungi kunda tasviriy san`at turlarini, ularning an`analarini tiklashda va rivojlantirishda o`z dolzarbligini ko`rsata oladi deb o`ylayman.

Diplom ishining maqsadi va vazifalari: shundan iboratki, mustaqillik davrda ijod qilgan mahobatli rangtasvir rassomlari hayoti va ijodi, san`ati asarlarini badiiy ishlash uslublari rangtasvir rassomlari ijodiga izoh berish shuningdek mahobatli rangtasvir san`atini o`ziga xos tomonlarini ilmiy amaliy yaratishni o`z oldinga maqsad qilib qo`ydim. Buxoro haqida kelajak avlodga yanada ko`proq va yaxshiroq ma`lumot, tassurot yetqazib berish uchun o`z oldinga shu mavzuni olib chiqishga qaror qildim. Buxoro men uchun juda qadimli chunki u yerda ota bobolarimning kindik qoni to`kilgan muqaddas zamindir. Asosiy maqsadim Buxoroning qanday go`zal, navqiron va ko`xna ekanligini ochib berishdan iborat.

Umuman olganda, Buxoro navqiron va ko`hna zamindir. Men Buxoroning qanday go`zal, quyoshli, qadimiy va navqiron maskan ekanligini tasvirlashga harakat qildim. Buxoro- jahondagi juda ko`p buyuk kishilarni o`ziga maftun aylagan, qanchadan-qancha ilm va ijod ahlining yuksak olqish, samimiy maqtovlarga sazovor bo`lgan uxshashi yo`q muqaddas bir diyor. Men malakaviy bitiruv ishimda juda ko`p mavzularni o`ylab ko`rdim Lekin ko`roq shu mavzuga to`xtalдим. Bitiruv malakaviy diplom ishimda Buxoroning bir qancha qadimiy va yangi binolarni tasvirladim.

**Mavzuning o`rganilish darajasining qiyosiy tahlili:** Malakaviy bitiruv ishini yoritishda mahobatlin rangtasvir san`ati ustida izlanish olib borilar ekan, albatta 21 asr O`zbekiston tasviriy san`atidagi turli nazariy masalalar haqidagi ilmiy adabiyotlar ko`rib chiqildi. O`zbekiston mahobatli rangtasviriy san`ati avvalgi tarixiy rivojlanishning mantiqiy bosqichidir.

O'zbekiston san'ati tarixi bosqichlarini yorituvchi umumiy adabiyotlardan “Iskustvo Sovetskogo uzbekistana”² 1917-1972 yillari O'zbekiston tasviriy va amaliy san'ati ushbu bir qancha san'atshunos olimlar tomonidan yozilgan adabiyotda qariyb yarim asrni o'z ichiga olgan davr san'atidan ma'lumotlar berilgan. Davr rassomlarining ijodi, ko'rgazmalarda qatnashgan asarlari taxlili bilan berilgan. Asar keng katta davrni o'z ichiga olganligi sabab, biz istagan mavzuga e'tibor kam qaratilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston mahobatli rangtasvir san'ati ijodkorlarining yutuq va muammolarini ochib beruvchi “San'at” jurnalidan keng foydalanildi. Bu kabi jurnallarda mustaqillikacha va mustaqillikdan keyingi davr tas'viriy san'atining yutuqlari N.R. Axmedova, A. Hakimov, Saida Ilhomova va G. Babadjanova kabi taniqli san'atshunoslar tomonidan yozilgan maqolalarni ko'rish mumkin.

Ishning yangiligi: Bitiruv malakaviy ishim rospis turi bo'lib bu kompozitsiyamda ko'proq yumshoq ranglardan foydalandim. Milliy ruxda yondashdim. Bu kompozitsiyam birinchi marotaba: asarda Buxoroning ko'rinishi turli eskizlar bilan ishlendi.

O'zlashtirishning davomiyligini o'rganib uning ustida har xil hajmdagi va har xil ko'rinishdagi eskizlar yaratish

O'quv yili davomida Buxoroni tarixiyligini, qadimligini, navqironligini ochib berish.

Diplom ishining obyekti: “Buxoro navqiron va ko'hna zamin” mavzusida ishlangan milliy mavzudagi kompozitsiya tahlili. Milliy mavzudagi bu kompozitsiya ishi “Buxoro xalqaro aeroporti” binosi uchun rospis uslubida mo'ljallab ishlangan.

Amaliy ahamiyati: Asar tadqiqoti natijalari quyidagi hollarda qo'llanishi mumkin: Buxoro navqiron va ko'xna zamin asarini yaratishda aqliy bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish.

² Moskva 1956

Bo`lajak mutaxasislarni ijodiy tayyorgarlik bo`yicha yanada samarali uslublarni ishlab chiqish.

Buxoro shahri qanday mo`tabar, tarixiy joyligini, milliy o`zligimizni unutmasligimiz uchun bir milliy asar yaratishga undash.

Ishning stukturasi: Malakaviy bitiruv ishi 2 bob, 6 bo`lim, xulosa qismi, golossari, atamalar, foydalangan adabiyotlar ro`yxati va illyustratsiyalardan iborat.

I. BOB. MAHOBATLI RANGTASVIR SAN`ATI TARIXI VA RIVOJI

1.1. Mahobatli rangtasvir san`ati tarixi

Mahobatli rangtasvir -rangtasvirning me'morlik bilan bog'liq turi; binolarning ichki qismi, shiftlari, qisman binoning tashqi tomoni devorlariga ishlangan tasvirlar. Mahobatli rangtasvir jamiyat hayotidan olingan muhim voqea va hodisalar, chuqur falsafiy tushunchalarni aks ettiradi. Uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi uchun obrazlarni umumlashma tarzda tasvirlashga, mayda qismlardan kamroq foydalanishga qarakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinishi mumkin.

Ishlanish usuliga ko'ra, freska, plafon va namoyon (panno)larga bo'linadi. Mahobatli rangtasvir qadimiy san'at turi bo'lib, ibtidoiy odamlarning g'or devorlariga ishlagan rasmlari (masalan: Zarautsoy rasmlari va boshqalar) uning ilk namunalari. Qadimiy va o'rta asrlarda nihoyatda rivojlandi va yetakchi san'at turlaridan biriga aylandi. Qadimiy Misr va Yunonistonda keng rivojlandi, keyinroq Vizantiya va boshqalarda ham Mahobatli rangtasvirning nodir namunalari yaratildi. Ayniqsa Uyg'onish davrida o'zining haqiqiy rivojlanish bosqichiga erishdi. Mikelanjeloning Vatikan saroyiga ishlagan devoriy rasmlari, Vero-nezening kompozitsiyalari shu davrning nodir yodgorliklaridir. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda bu san'at qadimiy va o'rta asrlar davrida rivojlandi. Bu davrda shohlar, zodagonlarning uylari, saroy va ibodatxonalar ko'p shaklli, harakatga boy rassomlik asarlari bilan ziynatlandi (Tuproqqal'a, Varaxsha, Bolaliktepa, Afrosiyob va boshqalar), Temur va temuriylar davrida ham mahobatli rangtasvir ning ajoyib namunalari yaratilgan.

O'zbekistonda mahobatli rangtasvirning yangi rivojlanish bosqichi 20-asr 30—50-yillariga to'g'ri keladi. Shu yillardan jamoat va ma'muriy binolarni bezash rivojlandi. O'zbekiston tabiati, kundalik tur-mush, fan, mehnat mavzuidagi kompozitsiyalar yaratildi, mumtoz o'zbek adabiyotidan olingan syujetlarga rasmlar

chizildi (Navoiy teatri binosi devorlariga ishlangan namoyonlar; mualliflari Ch. Ahmarov, O'. Tansiqboyev, V. Cheprakov va boshqalar). 60—80-yillarda ham mahobatli rangtasvirda yuksak darajadagi asarlar yaratildi. V. Jmakin, Q. Soipov, B. Jalolov, I. Lipene, V. Burmakin va boshqalarning freska, mozaika, vitraj va boshqa asarlari yuzaga keldi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda mahobatli rangtasvir yangi milliy mazmun mavzular bilan boyimoqda (Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va boshqalar)

Mustaqillik yillarida mahobatli rangtasvir "Mahobatli targ'ibot rejasi", deb nomlanuvchi mafkura asosida tasviriy san'atning birmuncha o'ziga xosligini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda rassomlarning ichki dunyosini namoyon etuvchi haqiqiy va badiiy yorqin asarlar yaratildi. Ushbu yo'nalishda ijod qilgan Ch. Axmarov, B. Jalolov va boshqa rassomlar tomonidan yaratilgan mahobatli rangtasvir asarlari mavjud.

Ma'lumki, mahobatli san'at o'z tamoyiliga ko'ra memorchilikdan xos tarzda mavjud emas. 1990-yillarda yangi ma'muriy ijtimoiy inshootlar, ko'hna binolarni qayta tamirlash hamda yangi shahar ansambillarini barpo etish turlarining jadallashib ketishi bilan mahobatli rang tasvirchilar ijod vositalarining yangi imkoniyatlarini qidirib topishga bo'lgan yondashuvlari sezilarli darajada faollashdi.

Zamonaviy shaharsozlik amaliyoti ikki yo'nalishda, ya'ni tarix memorchiligining an'anaviy qonunlariga bo'ysungan hamda o'z bilimlarining hamjamiyat saflariga tezlik bilan intilayotganligini aks ettirgan. Jahon memorchiligi yangi yutuqlarini namoyon etgan tarzda rivojlandi.

Mahobatli bezak san'ati ustida olib borilgan tadqiqot ishlari shuni tasdiqlaydi. O'zbekistanda hozirda ham uning ko'gina turlari saqlanib qolgan. Bu vaqtga kelib, shuningdek vitraj san'ati asarlari- shisha, spool va qandikorlik buyumlarda ishlangan bo'rtmalarga kompozitsiyalar yaratish shakllandi. San'atning barcha turlari bu davrda keng ko'lamda rivojlanishiga qaramay, mahobatli rangtasvirga badiiy jarayon birmuncha qiziqarli va serharakatlik bilan kechdi. Bu davrda

mahobatli rangtasvir sohasida birmuncha yorqin ishlar B. Jalolov tomonidan yaratildi. 10 yil mobaynida u alohida ahamiyat kasb etuvchi bir qator turkum devoriy sur`atlar yaratdi.

Rassomlar tomonidan yaratilgan har bir asar milliy qadriyatga asoslanadi. Tasviriyl san`at o`zining uzoq tarixiga va yorqin namunalariga ega bo`lganligi biz yuqoridagi dalillarda ko`rdik. Ana shu o`tmish san`at tarixining har bir davri jahon xalqlarining ilg`or san`at namunalari bilan bog`liq ravishda o`ziga xos ravnaq topganligi insoniylik g`oyalarining bir-biriga yaqin va hamohangligidan dalolat beradi.

Mahobatli rangtasvir san`atida milliy an`analarida uning ruhiyatiga mos keladigan boshqa xalqlar san`atidan andoza olibgina qolmasdan u xalqlarning san`at ravnaqiga alohida tasirini o`tkazib kelgan.

Bu o`rinda shu narsa diqqatga sazovorki, sharq xalqlari jumladan O`zbekiston hududidagi milliy va umumtasviriyl an`analarini uyg`unlashuvi xalqimiz tasviriyl san`ati hamda boshqa xalqlar san`atining badiiyl jihatdan boyligi, san`atni o`rganishi shuningdek, o`rganish uslublarini kengaytiradi, soddalashtiradi, yangidan-yangi qirralarni ham yuzaga keltiradi.

Mahobatli rangtasvir san`atini o`rganish bosqichlarining har birida hissiyl va ko`rsatmali materialning roli juda ham muhim, chunki mahobatli rangtasvir tasviriyl ko`rsatmalarsiz ta`lim va tarbiya jarayoni tashkil qilish mumkin emas. Faqat ko`rsatmali ishi yaxshi yo`lga qo`yilganligini kuzatuvchanlik aktiv va yumshoqlik bilan malakalari hosil bo`ladi. Bu esa rassomning idrok etish va tahlil qilish tajribasida zarur bo`lishi mumkin. O`zbekiston mahobatli rangtasvir o`z rivojiga ko`ra yangi bosqichni egallaydi. Uslubiy loyihada miniatura rangtasvirining ahamiyatli o`rin egallaganligi vatanimizning tarixiy va madaniyl o`tmishi bilan bog`liq bo`lgan mavzularga murojaat etilishi zamonaviyl mahobatli rangtasvir san`atining bu turning kelgusidagi rivojida mahobatli rangtasvir ustalarining ijodiy g`ayrati va zamonaviyl bosqichdan talabchan harakatlari bo`lib qoladi.

1.2. Mahobatli rangtasvir san`ati va arxitekturaviy yechimining o`zaro bog`liqligi jihatlar.

Mustaqillik yillarida ijod erkinligi san`atda izlanishlar turli uslub va yo`nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. San`atning baholash me`zonini ijodkorning shaxsiy o`y va kechinmalari belgilay boshladi. Mustaqillik yillarida rassomlik san`atining mavzusi kengaydi.

Tasviriy san`at kishilarda ma`naviy madaniyatning ajralmas qismlaridan biri hisoblangan badiiy madaniyatni uyg`un rivojlantirish, yoshlarimizni milliy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno qilish, ijodkorlikka keng yo`l ochib berishdan iboratdir. Uning vazifalariga esa yosh rassomlarda badiiy ijodiy qobilyat, kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, badiiy va estetik dinni, ko`z xotiurasini, chamalash qobilyatini, tasviriy malakalarini, rang sezishni hamda fazoviy obrazli tafakkurni rivojlantirish, borliq va san`at asarlaridagi go`zalliklarni ko`ra bilish, san`at asarlarini o`qiy olishga o`rgatish ham kiradi.

O`zbekiston tasviriy san`atida 1997-98-yillar o`ziga xos evolyutsion jarayonlarni boshidan kechirdi deyishimiz mumkin. Bu davrda akademiyamiz bilan birgalikda ideal g`oyalar olg`a surila boshladi. Mustaqillik mazmunini aks ettiruvchi bir qancha badiiy mazmunga ega bo`lgan ijodiy na`munalar yuzaga keldi.

Har bir ramz ijodkorning badiiy tili hisoblanib, o`z his tuyg`ularini, fikr va g`oyalarini ifodalaydi. Ramzlar etnik ahamiyatga ham ega bo`lib, biror bir davlat an`an avaqadriyatlarini ifoda etadi.

Tasviriy san`atda inson qalbi butun borliqni ramziylikda ifodalaydi bu har bir ijodkor ruhiyatida so`fiylik ta`limotini rivojlantiradi. Keyinchalik so`fiylik falsafa tushunchalari bilan uyg`unlasha bordi. Sharq falsafasi va nazmining umumiy g`oyalariga tayanib plastik obrazlarning yangi dunyosini yaratdilar.

O`zbekiston tasviriy san`atida musavvirlar o`z ijodiy na`munalarida akademik realizm an`analari, o`rta asrlar sharq falsafasi va estetik qarashlariga tayangan va uni o`zlashtirgan holda betakror badiiy tasviriy san`at namunalari yaratilmoqda.

Respublikamizda tasviriy san`atga e`tibor davlat siyosati darajasida. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning buyrug`iga binoan 1997-yili O`zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi madaniy rivojning yangi bosqichini ochib berdi. Muhimi san`atda mafkuraviy nazoratni bekor qilinishi natijasida ijod erkinligini qo`lga kiritgan rassomlar uslubiy rang-baranglikda asarlar yarata boshladilar. O`zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etilishi<sup>3</sup> u jarayonni yanada tezlashishiga yo`l ochdi.

Tasviriy san`at inson uchun nomaterial foyda, ya`ni estetik zavq beruvchi ish fsoliyat turi hisoblanadi. Insoniyat yaratgan eng buyuk buyumlar san`at asari sifatida baholanishi ham bejiz emas. Chunki san`at asarlarida davr ruhi, tafakkur rivoji o`z aksini topadi. Bu esa, o`z navbatida har avloq uchun kelajakda as qotuvchi bilimning tirik manbai, bemisl boylik hisoblanadi.

Tasviriy san`at janrlari hisoblanuvchi portret, manzara, natyurmort asarlari uni yaratgan shaxs hayoti, o`sha davr insonlari tog`risida qandaydir sirli usul orqali ma`lumot beradi. Tasviriy san`at asarlarining bu xususiyatlari to`xtovsiz bahslar uchun mavzudir.

Mahobatli rangtasvir asrlarining paydo bo`lishi inson tafakkurining birinchi cho`g`larining alanganishi, inson va borliq o`rtasida ongning paydo bo`lishi bilan bog`liq. Hozirgacha saqlanib qolgan homo sapiens istiqomat qilgan g`orlar devorlaridagi tasvirlarda ma`lumki inson harflardan ha oldin tasvirlar va ishoralar orqali muloqotga kirishgan evolyutsiyaning bu tamg`asini yosh bolalarning chizishga bo`lgan qiziqishidan ko`rish mumkin. Tasvir eng avvalo muloqot vositasi hisoblanadi. Lekin bu so`zlar orqali muloqotdan keskin farq qiladi. Chunki so`z fikr mahsuli, tasviriy san`at asarlari esa, hissiyot mevasidir.

³ 1997-yil Toshkent shahrida tashkil qilingan.

1.3. Mahobatli rangtasvir san`atining hozirgi kunda tutgan o`rni va zamondosh musavvirlar

Mahobatli rangtasvir san`ati hozirgi kunda oz` o`rniga ega yo`nlish desam adashmayman. Zamon bilan hamohang bo`lgan bu rangtasvir turi juda yaxshi rivojlandi. Arxitektura bilan birga mahobatli rangtasvir bir birini to`ldirib turuvchi hisoblanadi. Hozirgi kunda mahobatli asarlar binolarga mos ravishda san`at asarlari yaratilmoqda. Masalan: Ko`proq rospis, mozaika, vitraj, sgraffito va relyef asarlar ishlanmoqda.

Mahobatli rangtasvir hozirgi zamondosh rassomlar ko`p desam adashmayman. Masalan: B. Jalolov, A va V. Gan, S Raxmonov, G`. Qodirov, E. Nazarov, F. Sulaymonov, R. Xudoyberganov, A. Aliqulov, N. Shoabdurahimov va V.Xapov. Ular o`z ijodlarida tabiat go`zalliklarini, dolzarb mehnatni namoyon qilib, inson tuyg`usini kamol topishga samarali ta`sir ko`rsatdilar. Yosh ijodkorlar bunyod etgan asarlardan Toshkentdagi o`quvchilar Saroyi, Urganchdagi teatr, Chimyondagi dam olish uyi, O`zbekiston Davlat tarixi muzeyi, Konservatoriya, Senat saroyi "Turkiston" saroyi va boshqalardagi mahobatli rangtasvir bezaklar o`zlarining originalligi bilan diqqatni jalb etadi.

Bahodir Jalolov 1948 yil Toshkentda tug`ilgan.1974 yil I.E.Repin nomidagi Leningrad davlat rangtasvir, haykaltaroshlik va me`morlik institutini tamomlagan. Yoshlik yillarida portret san`atining ustasi Abdulhaq Abdullaevdan ta`lim olgan.

U O`zbekiston Xalq rassomi, O`zbekiston Badiiy Akademiyasi haqiqiy a`zosi, Qirg`iziston Badiiy Akademiyasi haqiqiy a`zosi, Rossiya Badiiy Akademiyasining faxriy a`zosi, K.Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professoridir.

1991 y. A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Davlat mukofoti laureati bo`lgan.

Uning ijodiga Sharq va G`arb, akademizm va modernizm, reallik va fantaziya, intuisiya va echimning aniqligini taqqoslash, dastgohlilik va mahobatlilik, tekislilik

va fazoviylik xos. Rassomning asarlari Toshkentdagi O'zbekiston davlat san'at muzeyi, O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi, Moskva davlat Tretyakov galereyasi, Rassomlar uyushmasi konfederasiyasining xalqaro Fondi, Zamonaviy san'at muzeyi, Londondagi Bokingem saroyi va Britaniya muzeyida, shuningdek, ko'plab chet el shaxsiy to'plamlarida saqlanadi.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, "Shuhrat" medali sohibi Alisher Aliqulov ustoz rassomlar — G'afur Qodirov va Rustam Xudoyberganovdan rangtasvir sirlarini o'rgandi. Uning talabalik yillarida ishlagan "Buyuk imperiyaning halokati" nomli diplom asari hozirda Milliy rassomlik va dizayn institutida saqlanmoqda.

Alisher Aliqulov rangtasvirning mahobatli va dastgohli janrlarida birdek ijod qiladi. Musavvirning 1996 yili poytaxtimizda bunyod etilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga ishlangan "Qadimgi Baqtriya sport o'yinlari" nomli pannosini sara asarlar sirasiga kiritish mumkin. Shuningdek, "Uloq", "Kurash", "Poyga", "Yoyandozlik", "Nayza uloqtirish", "Tosh ko'tarish" kabi asarlarida ham milliy o'yinlarimiz rang-barang, murakkab kompozisiyaga ega realistik yo'nalishda yaratilgan.

Ijodkor 1996 yili Temuriylar tarixi davlat muzeyi uchun "Samarqand bozori" asarini ishlagan. Muzey zaliga ishlangan yana bir asarda "Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi" aks etgan.

2002 yili O`zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun “Amir Temur va jahon tarixi” pannosini ishlagan. Hozirda uning mahobatli rangtasvir asarlari vatanimizning turli madaniy va ma`muriy binolarini bezab turibdi.

Rustam Xudoyberganov 1970 yilda Toshkent Davlat pedagogika instituti “Badiiy grafika” fakul`tetini (hozirgi TDPU)ni tugatgan. 1972-1975 y. Xar`kov (Ukraina) Badiiy Sanoat institutida o`qigan va 1979 yilda A.Ostrovskiy nomli teatr va rassomlik institutining “Mahobatli rangtasvir” bo`limini tamomlab, o`z ijodiy faoliyatini yoshlarga ta`lim berishga bag`ishladi.

Uning monumental asarlari Toshkent davlat konservatoriyasi (Vitraj), Toshkent, Termiz, Urganch, shuningdek, Rossiya, Turkmaniston, Tojikiston kabi chet el shaharlaridagi jamoa binolarini bezab turmoqda. Rassomning “Amir Temur portreti”, “Bobur”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Sulton Abdusaid mirzo”, “To`maris”, “Feruz portreti”, “Spitamen”, “Momo”, “Hojar xola”, “Otam portreti” va “Aslo taslim bo`lmaymiz” (J.Manguberdi) tarixiy kartinalari kabi portret asarlari tomoshabinlar e`tiboriga tushgan.

II BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHNING BAJARILISH BOSQICHLARI

2.1 Buxoro qadimiy va mo`tabar shahar

“Ko`hna va boqiy Buxoro” monumenti, viloyat teatrining yangi binosi hamda zamonaviy loyiha asosida barpo qilingan amfiteatrni o`z ichiga olgan, gulzor va xiyobonlardan iborat madaniy markaz ham ular qatoridan o`rin olib, istiqlolimiz sharofati, xalqimiz qudrati hamda Prezidentimiz tashabbuskorligi va rahnamoligi bilan sharif shahar yanada go`zallashib, chinakam Sharq gavhariga aylandi.

Buxoro – jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri: 1997 yilda shahar o`zining 2500 yillik yubileyini nishonladi. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Bungacha shaharning boshqa bir necha nomlari bo`lgan.

Ko`plab tarixchilar, tilshunoslarning fikriga ko`ra Buxoro so`zi sanskritcha “vixara” so`zidan kelib chiqqan bo`lib, “qal`a” degan ma`noni bildiradi. Arxeologik qazishmalar natijasiga asosan olimlar ushbu shahar eramizgacha bo`lgan davrda hududning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o`ynagan degan xulosaga keldilar. Buxoro Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo`lining eng muhim chorrahalaridan birida joylashgan.

VIII asrda bu erda arab istilosi natijasida Islom dini joriy etilgan. Asta-sekin Buxoro eng muhim diniy markazga aylangan va tobora ko`proq “Buxoroi Sharif” deb atashgan.

Rivojlanish davrida shahar bir necha bor (forslar, arablar, mo`g`ullar tomonidan) vayron qilingan va tiklangan. Buxoroning o`ziga xos iqtisodiy va madaniy rivojlanishi Somoniylar va Shayboniylar boshqargan davrlarga to`g`ri keladi.

Hozirgi Buxoro (qariyb 300 ming aholi) O`zbekistonning boshqa shaharlari singari eski va yangi shaharga bo`lingan. Lekin bizning shahrimiz shak-shubhasiz ustunlikka ega: agar boshqa joylarda eski shahar qismida faqat tarixiy yodgorliklar bo`lib, hech bir aholi yashamagani uchun ochiq osmon ostidagi muzey sifatida qabul

qilinsa, Buxoroda odamlar ming yillar ilgarigidek yashamoqdalar. Bu har bir kishiga shaharning boy tarixini tasavvur qilish imkonini beradi.

Shaharning yangi qismida ma'muriy binolar, maktablar, institutlar va sanoat korxonalari joylashgan. Siz 2500 yillik Buxoroning tor ko'chalarida kezishingiz va ko'k gumbazli hashamatli binolar hamda kichik loysuvoq uylardan zavq olishingiz mumkin.

X asrda qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasi Buxorodagi eng qadimiy va chiroyli yodgorliklardan biridir. U hozirgi paytda ham xuddi 1000 yil ilgarigidek chiroyli ko'rinishga ega. Somoniylar asli fors bo'lgan birinchi tojik hukmdorlaridir (eramizning 875-999 yillari). Ular poytaxti Buxoro bo'lgan buyuk davlatni barpo etishgan. O'sha davr qurilish, san'at turlari, matematika, geometriya, fizika singari aniq fanlarning yuksak darajada rivojlanishi bilan xarakterlanadi.



Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahri hududida aniq hisob-kitoblarga asosan qurilgan dastlabki bino edi. Butun ilm ahli bu hisob-kitoblar qanchalik o'ta mantiqiy va shu bilan birga chiroyli chiqqaniga hali ham ajablanadi. Tikka, ko'ndalang, to'g'i burchak ostida terilgan pishiq g'ishtlar quyoshning turli darajadagi nurlari bilan yoritilgan. Maqbara devorlari naqshinkor quti yoki ba'zan majnuntol xivichlaridan to'kilgan savatga o'xshab ketadi.



Ark qal'asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo'lgan. U balandligi 16-20 metr bo'lgan sun'iy tepalikda qurilgan. Qal'a maydoni qariyb 4 gektar. Odamlar ko'pincha uni "shahar ichida shahar" deb atashgan, chunki unda odatdagi shaharning hamma narsalari: ko'chalar, tor ko'chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo'lgan.

Qal'a bir necha bor vayron qilingan, ta'mirlangan va tiklangan. Afsuski, hozirgi paytga kelib, o'tmishdagi hashamatli Arkdan ozginasi qolgan. Ko'plab binolar 1920 yilgi istibdod voqealari davrida buzilib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan Ark borib ko'rishga arziydi. Arkda joylashgan o'lkashunoslik muzeyida siz shahar tarixi, miliy urf-odatlar va an'analar to'g'risida ko'p qiziqarli narsalarni eshitasiz. Bundan tashqari qal'aning baland devorlari ustidan turib siz Buxoroning chiroyli qiyofasini tomosha qilishingiz mumkin.

Poi Kalon me'moriy majmui – barcha mehmonlar e'tiborini jalb qiladigan joy. Mo'g'ul davridan ancha ilgari, XII asrda barpo etilgan Kalon Minorasini deyarli hamma joydan ko'rish mumkin. XVI asrda uning yonida Masjidi Kalon va ro'baro'sida – Miri arab madrasasi qurilgan.

Musulmon bayramlarida minora tepasidan muazzinning solih musulmonlarni namozga chorlovchi ovozini eshitish mumkin edi. Qadim zamonlarda kechasi minora tepasida yoqilgan olovni uzoq-uzoqlardan ko'rish mumkin bo'lgan. Hozir, xuddi ilgari paytdagidek, minora eski shahar tepasida turibdi. Minora o'zining uygun shakllari va aniq chiziqlari bilan uzoqdan sizning e'tiboringizni tortadi. Agar siz minorani ko'rish sharafiga muyassar bo'lsangiz, uning aniq proporsiyalari va chiroyli terilgan g'ishtiga maftun bo'lasiz.



Masjidi Kalon – Samarqand shahridagi Bibixonim masjididan keyin O`rta Osiyodagi ikkinchi eng katta masjid. Musulmon bayramida masjidga 10 ming kishi sig`ishi mumkinligi o`z isbotini topgan. Masjidning usti ochiq yirik hovlisi, uning ajoyib peshtoqlari va usti yopiq ayvonlari unutilmas taassurot qoldiradi.

Masjidi Kalon ro`parasida joylashgan Miri Arab madrasasi proporsiyasi va simmetriyasi tufayli o`zidan keyin qurilgan masjidlar uchun hamisha namuna vazifasini o`tagan. Bo`lg`usi imomlar ta`lim olgan Miri Arab madrasasi ko`p yillar davomida sobiq sho`rolar ittifoqi davrida amal qilgan yagona madrasa bo`lgan.



Buxoroning markazi (16-17 asrlar). Labi Xovuz – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va yangi do`stlar orttirishingiz, o`tmishni esga olishingiz va kelajak hakida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o`rtasida katta hovuz bo`lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko`kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi.

Bu yerda eng eski bino - Ko`kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko`kaldosh ismli vazir Buxoroda O`rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqida buyruq bergan.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalari o'zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlarga olib kelgan: bu yerda talabalar uchun masjid ham, ma'ruza zali ham bo'lmagan – ular ko'zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshinlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina shu madrasaning peshtoqida afsonaviy Semurg` qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Yilning issiq faslida madrasa ichki hovlisida folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin. Tim qora tungi osmon, xazin va quvnoq maftunkor kuy...

Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islom markazi bo'lgan. Bu yerga ko'plab ziyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo'nokka muhtoj bo'lganlar. Shu boisdan shaharda ko'plab kichik mehmonxonalar va karvon saroylar mavjud bo'lgan. Ehtimol, bu xonako dindorlar o'rtasida mashhur bo'lgan, chunki unda nafaqat uxlash uchun xonalar, balki namoz o'qish uchun katta masjid ham bo'lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.

Labi hovuzga keling. Bu yerdagi choyxonada bir piyola ko'k choy iching, kun bo'yi shu joyda o'tirib, domino o'ynab, keksalar bilan suhbatlashing. Bu yerda siz shahar jamolini, uning aholisi mehmondo'stligini va milliy xarakteri xususiyatlarini boshqa joydagidan ko'ra ko'prok his qilasiz.

Shahardan taxminan 4 km. tashqarida Buxoro so'nggi amirlarining yozgi saroyi joylashgan. Saroy "Sitorai Moxi xosa" – Oy va yulduzlar o'rtasidagi joy deb, shoirona nomlangan. Saroyning me'moriy jihatdan tuzilishi faqat shu bois ham qiziqarliki, u XIX asr oxiri va XX asr boshidagi boylarning didini namoyish qiladi. Binolarning asosiy qismi turlicha qarashlarning aralash uslubida qurilgan. Taxt o'rnatilgan xona istisno tariqasida milliy urf-odatlariga to'la mos ravishda bezatilgan. Undagi ajoyib nozik "ganch" o'ymakorligi sizning xotirangizda muhrlanib qoladi. Hozir bu yerda xalq amaliy san'ati muzeyi joylashgan bo'lib, unda siz ipak bilan

tikilgan chiroyli soʻzani, sopol buyumlar, ayollarning anʼanaviy zargarlik taqinchoqlari, milliy kiyimlar va boshqalarni tomosha qilishingiz mumkin.

Buxoroda boshqa koʻplab yodgorliklar mavjud, ularni sanab adogʻiga yetib boʻlmaydi.

Buxoroga borib, shu qadimiy shaharni koʻrgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi gʻalati koʻrinishdagi «qalpoqlarga» eʼtibor bergan boʻlsalar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli boʻlgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi boʻla oladi. Boy goʻzal shahar juda koʻp marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlarining maqsadi boʻlgan, moʻgʻul-tatarlarning bosqini eng ogʻir, yer bilan yakson qiluvchi darajada boʻlgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan oʻsha joyda tiklanib, oʻz zamini-yu aʼanalariga sodiq boʻlib qaytadan barpo boʻlar edi.

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997 yilda YuNESKO ning qaroriga koʻra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo boʻlishini tarixiy shaxs obrazi bilan bogʻliq Zardushtiylik xudolaridan biri “Siyovush”⁴ bilan bogʻlaydi. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qalʼasi “Ark” hisoblanadi, bu yerda arxeologlar eramizdan avvalgi IV - III asrlarga oid boʻlgan baʼzi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr boʻlgan katta tepalik boʻlib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning harami, xazinası, qurol-yarogʻ saqlanadigan xonalari, oʻta xavfli jinoyatchilar uchun zindon boʻlgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda. Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrning boshida Somoniylar sulolasining asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbara usti yarim sfera shaklidagi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binodir. Somoniylar maqbarasi Oʻrta Osiyoning meʼmorchiligida bizgacha yetib kelgan, pishiq gʻishtdan qurilgan birinchi bino boʻlib, bunda gʻishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlatilgan.

⁴ Quyoshga teng qilinib, umri soʻnayotgan va qayta tirilayotgan maʼbud ramzi.

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti 1127 yilda qurilgan Kalon minorasidir. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrga ko'tarilib turgan ulkan minoradir. O'zbekistonda eng baland bo'lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari sal ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasi o'rab turgan halqalar turli rangdagi sirlangan g'ishtchalar bilan bezatilgan. Shu bilan birga minoradagi naqshlarning turli-tumanligi va takrorlanib kelishi sodda va komil me'morchilik shakllarini boyitadi. Buxorodagi o'rta asrlar me'morchiligining alohida xususiyati ko'cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo'lgan majmualarning barpo etilishi edi. Shu asosda shaharning markaziy me'morchilik majmuasi yaratilgan "Poi Kalon" («Ulkan inshoot osti») maydoni. Uning minorasi gumbazli o'tish yo'li bilan benihoya ulkan juma masjidi "Masjidi Kalon" bilan bog'langan. Uning qarshisida XVI asrning boshida hatto bizning davrimizda ham ishlayotgan Mir-Arab madrasasi barpo etilgan.

Chashma-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII asrlarga oid, deb hisoblanadi. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg'ambarlardan biri Ayub (Iov) Buxoroning bu suvsiz qismidan o'tayotganda hassasi bilan yerga urgan natijada bu yerda top-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo'lgan. XIV asrda Amir Temur o'zining yurishlaridan birida olib kelgan xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo etganlar hamda quduqdagi baland tortish qurilmasi ustidagi konus shaklidagi gumbazga Xorazm uchun xos bo'lgan shakl berganlar. Ularga qaraganda mashhur Chor-Minor masjidi esa yangi qurilgan bino, deb atalishi mumkin u XIX asrda qurilgan. Bu masjidda to'rtta uncha baland bo'lmagan minoralar hamda gumbazlar zangori rangda bo'lib, masjidga o'ziga xos qiyofa bag'ishlaydi.

Sharq me'morchiligi uchun sun'iy suv havzalari bo'lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagi holdir. Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo'lib, shaharni ta'minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo'lgan hovuz Labi-hovuzdir.

Yirik poytaxt-markaz bo'lgan Buxoro shahri nafaqat o'zining masjidu madrasalari, maqbarayu-mozorlari bilan, balki saroylari, hashamatli uylar, karvon-saroylar, hammomlari va ko'p gumbazli savdo majmualari bilan ham mashhur edi. Shaharda ko'chalarning kesishuvida guzarlarda qurilgan Toqi-Zargaron («Zargarlarning gumbazi»), Telpak-Furushon («Telpaklar sotuvchilarining gumbazi») va Toqi-Sarrofon («Pul almashtiruvchi sarroflarning gumbazi») saklangan, ular hozirgacha savdo rastalari sifatida ishlatilmoqda. Ularning birinchi qurilishi va ishlatilishidan nomlari ham dalolat bermoqda.

O'rta asrlarda Buxoro Markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning muqaddas shahri bo'lgan edi, bunda nafaqat diniy hurmat-e'tibor, balki estetik tuyg'ular ham ifodalanar edi. Buxoro shon-sharaf mujassam bo'lgan shahar deb hisoblanar edi, u yerda eng mashhur kishilar yig'ilar edi. Islomda Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turgan diniy kitob eng haqqoniy hadislarning to'plami bo'lgan «Al-jami as-sahih» ning muallifi Imom Al-Buxoriy edi. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) shaharga yaqin bo'lgan qishloqdan kelib chiqqan edi⁵, u shaharda o'z faoliyatini boshlagan. Islomda eng muqaddas shaxslardan biri shayx Bahovuddin Naqshband, so'filar ta'limotining asoschisi, buxorolik misgar edi. Shayxning go'rini ziyorat qilish Makkaga borib bajarilgan haj marosimiga tenglashtirilar edi. Bahovuddin Naqshbandning maqbarasi hozir ham shaharning eng muqaddas joyi deb hisoblanadi.

Buxorodan dunyoga taniqli bo'lgan tarixchi olim Narshaxiy, yirik shoirlar Rudakiy va Daqiqiy kelib chiqqan. Lekin ayni shu shaharda, odamlarning gap-so'zlariga qaraganda xalqning sevimli namoyandasi, o'tkir so'zli «tinchlikni buzuvchi» latifago'y Xo'ja Nasriddin Afandi ham yashagan. Hazilkash donishmand Afandining latifalari va teran fikrlari son-sanoqsizdir. Musulmon allomalari, mutafakkirlarining, me'morlarning va shoirlarning ko'p asrlik ijodiyoti tufayli shahar «Islom cho'qqisi», «Buxoroi Sharif», «Muqaddas shahar» faxrli unvonlariga musharraf bo'lgan. O'ylaymizki, Buxoro shahri haqiqatan ham bu unvonlarning barchasiga loyiq. Shu bilan birga shahar zamonaviy sanoat va madaniyat markazidir.

⁵ Buxoro atrofidagi "Afshona" qishlog'ida tug'ilgan

Unda zamonaviy qurilgan aeroport, oliy o'quv yurtlari, kollejlari, litseylar. Teatrlar, sport-sog'lomlashtirish inshootlari va markazlari ham mavjud.⁶

⁶ <http://buxoro.uz/post/ko'hna-va-boqiy-buxoro-11291>

2.2 Buxoro buyuklar bitigida

VIII BUXORO ARKINING BINO ETILISHI HAQIDA .

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyibotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abu-l-Hasan Nishopurining "Xazoyin ul-ulum" da aytishicha, Buxoro kuhandizining, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu voqea sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus oz' otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkni ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishini istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. Kimlardir u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurg'izdi va Afrosiyob uni o'ldirdi hamda an shu hisorda hisorda sharqiy darvozadan kiraverishida "Darvoza'iy g'uriyoni" deb atalgan somonfurushlarning darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro'z kunu quyash chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuchlilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar. Qo'shiqchilar uni "otashparastlar yig'isi" deydi. Bu gaplar bo'lganiga hozir 3 ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi.

Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. So'ng bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronaligicha qoldi. Biz aytib o'tgan xotinning eri, Taxshodaning otasi bo'lgan Bidun Buxorxudod taxtga o'tirganidan keyin odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va u o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o'rnatirdi shu xat bitilgan temir tarjimonning zamonigacha o'sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Jafar va Abul-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudod u qasrni bino qilganida buzilib ketti, qaytadan bino

qilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo`laverdi. Hukamolarni yig`ib ulardan maslahat so`radilar. Ular bu qasrni osmondagi yeti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar, qurilgandan keyin qasr buzilmaydi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirga hech bir podshoh mag`lubiyatga uchragan emas, aksincha, hamisha g`alaba qozongan yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida-biror podshoh ham uning ichida o`lmagan, podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan-bu qasr bino qilinganidan to vayron bo`lgunicha shunday bo`lib kelgan.

Bu hisorning ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonda, biri g`arb tomonda: sharq tomondagisini “Dari G`uriyon”, g`arb tomondagisini “Dari Registon” deytilar, tarjimonning davrida keyingisini “Dari Alaffurushon” deb ataganlar. Hisorning o`rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to`g`ri yo`l bo`lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turar joylari bo`lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo`lgan. Haram saroyi va xazina shu hisorda bo`lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o`ziga turar joy qilib oldi hamda hisorni malum shartlarga muvofiq idora qilib turishi uchun ulug` bir amirni qutvol qilib tayinlaydi. Bu hisor xalq ko`zida zo`r e`tiborga ega edi

Besh yuz o`ttiz to`rtinchi yil oylaridan birida (28 avgust 1139 — 16 avgust 1140) Xorazmshoh Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjarning farmoni bilan, Buxoroning voliyi edi. Xorazmshoh uni qo`lga olib o`ldirdi va hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. Besh yuz o`ttiz oltinchi yili (6 avgust 1141—26 iyul 1142) Go`rxon⁴ tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegiya o`sha yiliyoq hisorni obodon qilishga buyurdi va uni o`zi uchun turarjoy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham yaxshiroq bo`ldi. Besh yuz o`ttiz sakkizinchi yili ramazon oyida (8 mart — 6 aprel 1144) g`uz askarlari Buxoroga etib keldi. Aynuddavla, Qarochabek vz Shahob vazirlar hisorga qamaldilar, ko`p jang va qiyinchiliklardan keyin g`uz askarlari hisorni olib, Shahob

vazirni o'ldirdilar va hisorni vayron qildilar; hisor shu vayronligicha qoldi. Besh yuz oltmishinchi yili (18 noyabr 1164 — 6 noyabr 1165) Buxoro shahrining aylanasi devor qurmoqchi bo'ldilar; devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g'ishtdan edi, uni buzib olib Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron bo'ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi. Olti yuz to'rtynchi yili (28 iyul 1207—15 iyul 1208) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi; xitoyliklar engildilar. Olti yuz o'n oltinchi yili (19 mart 1219—7 mart 1220) esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal'aning darvozasida o'n ikki kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar.

IX PODSHOHLARNING BUXORODA BO'LGAN MANZILLARI HAQIDA

Buxoro hisorning g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb ataladi. Mana shu Registonda qadim johiliyyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo'lgan. Somoniylar davrida Amiri sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as Somoniy Registonga bir saroy (qurishni) buyurdi; g'oyatda go'zal bir saroy qurdilar; (Amir) bunga ko'p Mol sarfladi; u o'z saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishga buyurdi, uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z saroyida alohida devoni bor edi; masalan: vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat xos mulklari devoni, muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni. (Amir) mana shu tartibda devonlar qurishga buyurdi va ularni qurdilar.

Abdulmalik ibn Nuh nbn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning davrida uning vaziri va «Kitobi Yaminiy»ning muallifi xudo rahmat qilgur Ahmad ibn Hasan al-Utbiy uning go'ri Darvozayi Mansur mahallasida, xon hammomining yonidadir, madrasa ro'parasiga juda yaxshi bir masjid bino qildi va shu masjid tufayli o'sha mavzu kamol topdi. U dono amir otdan yiqilib o'lgach, qullar kechasi saroyga kirib, uni talashga kirishdilar. Amirning yaqin kishilari va kanizlari o'rtasida janjal chiqib, saroyga o't

qo'yib yubordilar; saroy butkul yonib ketdi va undagi tilla va kumushdan (ishlangan) hamma go'zal narsalar yaroqsiz bo'ldi. Shunday (yong'in) bo'ldiki, u binolardan biror nishon ham qolmadi.

Uch yuz elliginchi yil shavvol oyida (13 noyabr - 11 dekabr 961) Amiri sadid Mansur ibn Nuh Jo'yi muliyon degan joyda taxtga o'tirgach, uning farmoni bilan u saroyii yangidan qurib nobud va zoe bo'lgan narsalarni avvalgidan ham yaxshiroq qilib vujudga keltirdilar. Shunda Amiri sadid saroyda joylashdi. (Biroq) hali bir yil ham o'tgani yo'q ediki, bir bayram kechasi o'tkazilib, qadimiy odatga muvofiq katta gulxan yoqdilar, bir pora olov uchib saroyning shipi alanga oldi va saroy yana butunlay kuyib ketdi. Amiri sadid kechasi Jo'yi muliyonga ketdi va vaziriga shu kechadayoq hamma xazina va dafinalarni olib chiqishga buyurdi. (Vazir) bu narsalarni ishonchli kishilar orqali Jo'yi muliyonga yubordi. Tong otgach, bitta tilla kosadan boshqa hech bir narsa yo'qolmaganini aniqladilar. Amiri sadidning vaziri xolis o'z puliga og'irligi etti yuz misqol keladigan bir kosa buyurtirdi va uni xazinaga yubordi. Usha vaqtdan beri bu mavzu yana registon — «bo'sh maydon»ga aylanib vayron bo'lib qoldi.

Keyin podshohlar saroylari Jo'yi muliyonda bo'lgan. Jo'yi muliyonning jannatni eslatuvchi go'zal maqomidan ko'ra yaxshiroq biror joy va manzil Buxoroda yo'q edi. Chunki uning hamma joyi saroylar, bog'lar, gulzorlar va bo'stonlar bilan qoplangan. Doimiy oqib turuvchi suvlar (bilak ta'minlangan). Uning chamanzorlari bir-birlariga tutashib kettan va ularning oralaridan ariqlar o'tib chamanzorlar va gulzorlar tomon ming tarafga qarab oqar edi. Oqib turgan suvlarni tomosha qilgan har bir kishi, bu suv qaerdan kelayapti-yu, qaerga ketayapti deb hayratda qolar edi. O'z zamonining nodir ustodlari va me'morlarni ana shunday tarh chizgan edilar. Bir baxtli (shoir) bunday degan.

Bayt:

Hayot suvi bu chamanga keldiyu, zor-zor yig'lab ketdi,

Bu gulshanni tashlab ketish shart ekanligidan nolalar qilib ketdi.

Yana Registonning darvozasidan to Dashtakkacha (bo'lgan) hamma yer toshdan ishlanib naqshlangan, bir tartibda (qurilgan) baland tand uylar, turli suratlar ishlangan mehmonxonalar, chiroyli chorbog'lar va yaxshi sarhovuzlar bilan band edi. Sada qayrag'ochlar shunday bir tarzda chodir shaklini olgan ediki, sarhovuz labidagi o'tiradigan joyga sharq tomondan ham, g'arb tomondan ham zarracha quyosh tushmas edi. Bu chorbog'larda nashvati, bodom, yong'oq, gilos, jilon jiyda va anbar bo'yli jannatda bo'ladigan har bir meva g'oyatda yaxshi va go'zal tarzda(o'tqazilgan) edi.

X JUYI MULIYONNING BAYONI VA UNING TAVSIFI

Jo'yi muliyon yerlari qadim vaqtlarda Tag'shodaning mulki bo'lib, u o'z farzand va kuyovlarining har biriga taqsim qilib bergan edi. Marhum amir Ismoil Somoniy bu erlarni xalifa al-Musta'in ibn al-Mu'tasimning lashkarboshisi bo'lgan Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan sotib oldi. Amir Ismoil Jo'yi muliyonda saroylar va bog'lar barpo qilib, uning ko'proq qismini mavoliylarga vaqf qildi. U hozirgacha ham vaqf. Amir Ismoil doimo o'z mavoliylariga g'amxo'rlik ko'rgizar edi.

Bir kuni amir Ismoil Buxoro hisoridan Jo'yi muliyonga qarab turganida uning yonida otasining mavlosi Simo-ul-kabir — «Ulug' siymo» turgan edi. Amir Ismoil uni do'st tutar va yaxshi ko'rar edi, unga qarab: «Bir vaqti ketsa-da, xudoyi taolo biror sabab tug'dirib, bu erlarni sizlar uchun sotib olsam va menga umr bersa-da, bu erlar sizlarniki bo'lganini ko'rsam, chunki bu erlar Buxoroning barcha erlaridan qiymatliroq, yaxshiroq va xush havoliroqdir»— dedi. Xudoyi taolo nasib etib amir Ismoil u erlarning hammasini sotib olib, mavoliylarga berdi va nihoyat, u yerlar Jo'yi mavoliyon deb ataldi, ko'pchilik xalq esa uni Jo'yi muliyon, deydi.

Buxoro hisoriga bir tekislik er tutashgan bo'lib, uni «Dashtak» deydi. Bu erlarning hammasi qamishzor edi. Marhum amir Ismoil bu joyni ham Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan un ming diramga sotib oldi va birinchi yildayoq qamishning pulidan o'n ming diram hosil undi. Amir Ismoil bu joyni masjidi jomega vaqf qildi. Amir Ismoildan keyin uning farzandlaridan kimki amir bo'lsa u go'zalligi, toza va xushhavoligi tufayli Jo'yi muliyonda o'zi uchun bog' va ko'shklar bino qildi.

Darvozayi Navda shahar darvozasiga tutash bir mavze borki, uni «Koraki Alaviyon» — «Ali avlodi ekinzori» deydilar. Amir Mansur ibn Nuh bu joyga g'oyat go'zal bir ko'shk qurdi; go'zallikda uni misol qilib gapirar edilar; u uch yuz ellik oltinchi yili (17 dekabr 966—6 dekabr 967) (qurilgan) edi. Koraki Alaviyonning bu yerlari to Nasrxon ibn Tamg'ochxon davrigacha sultonlik mulki bo'lgan edi. Nasrxon bu erlarni shaharga yaqin bo'lganligi uchun faqihlarning dehqonchilik qilishlari osonroq bo'lsin deb ilm ahllariga berdi va o'zi buning evaziga uzoqroq yerlardan oldi.

Jo'yi muliyon va Koraki Alaviyon somoniylar hukmronligi davrining oxirigacha obod edi. Mamlakat somoniylar qo'lidan ketgach, u saroylar xarob bo'ldi hamda toki Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim Tamg'ochxon davrigacha Buxoroda faqat hisordan boshqa (podshohlar uchun) biror muayyan qarorgoh bo'lmadi. Shamsulmulk Shamsobodni bino qildi.⁷

⁷ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. "Buxoro tarixi"

3.1. “Buxoro navqiron va ko`hna zamin” kompozitsiyasining ishlanish bosqichlari va o`ziga xos usuli

Men o`z kompozitsiyamda Buxoroni anglatuvchi bir qancha ziyoratgohlarini va navqiron binolarni ifodalab Buxoro tasvirini bino-arxitekturaviy yechimidan kelib chiqib ishladim. Kompozitsiyam uch qismga bo`lingan bo`lib, har uch qismda Buxoro shahrining in`omlari o`z aksini topgan. Quyosh, kelajak, go`zallik, beg`uborlik, nafislik, vatan, ota-bobolarimizning o`tmishi, baxt timsoli bo`lgan Humo qushi, insonlar va tabiat kabi tushunchalar ishimda o`zining ramziy ifodasini topgan.

Kompozitsiyamni uch qismga bo`lib turgan halqalar va ularni to`ldirib turgan turli shakllar Buxoro shahridan nur taralayotgani, qanchalik bu maskan go`zal ekanligini, dunyoning eng hushmanzara diyorlaridan biri ekanligini tasvirlaganman. Eskizlarimdan biriga ustozim bilan birga to`xtaldik, so`ng uning qanday hajmda bo`lishiga aniqlik kiritdik. Tanlangan eskiz asosida kompozitsiyani kata hajmda boshlab bir hafta davomida ishladim. Eskiz bilan fragmentni ham birdaniga tasvirini davom ettirdim. Padramniklar yasaldi, xolstni rospis uchun tayorlab, tasvirini kalka qogoz yordamida tushirdim. Kerakli kollerlar tayorlab ishga kirishdim. Muqaddas qadamjolarini uzoq vaqt bosqichma bosqish ishladim. Figuralarni oq rangda tasvirladim. Muqaddas qadamjolarini issiq va sovuq ranglardan foydalanib ishladim.

Rangdagi yechim esa asosan ohra, sariq, feruza, ko`k va ultramarin kontrasti ustiga qurilgan bo`lib, issiq-sovuq ranglarning nozik mutanosibligiga erishilgan.

Kompozitsiyaning har uch qismining markazlari nisbatan tekislikning geometrik markazidan siljigan bo`lib bu asarning vizual o`qilishida o`ziga hos dinamikani paydo qiladi.

Har uchala markaz kompozitsiyaga mutanosib tarzda halqalar bilan ajratilgan. Chap tarafda Nodir Devonbegi madrasasi, Chashmai Ayub maqbarasi, “Ko`hna va boqiy Buxoro” monumenti, Buxoro vokzali va qadimiy uylar tasvirlagaman. Markazda Humo qushi, Arslonxon minorasi, quyosh, Chor-Minor, Ismoil Somoniy

maqbarasi⁸ va qadimiy uylarni tasvirlaganman. Kompozitsyaning o`ng tarafida Abdullaxon Tim bozori, Buxoro Amfiteatri, mehmonxona va Buxoro Arki ifoda etganman. Baxt timsoli bo`lgan Humo qushi qadimiy Buxoro osmonida doimiy parvoz etib yurganini ifodalash maqsadida uning jozibador dumlari halqalar orasida tasvirlangan. Kompozitsiyamda mamlakatimiz Mustaqillikka erishgach dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o`z o`rnini egalladi, degan ma`noni mujassamlashtirishga harakat qildim va qadimiy, ko`hna binolar bilan birgalikda zamonaviy, navqiron inshootlarni ham tasvirladim.

Buxoro xalqaro aeroportiga tashrif buyurgan har bir sayyoh ikkinchi qavatda joylashgan kutish zalida uning bir tarafdagi devorida kompozitsiyamning uch qismi quyoshli zamin ekanligi, boy tarixi, zamon bilan hamnafasligi his etishiga, sayyohlarda bu ko`hna zaminga qiziqish uyg`otishga, uning tarixidan, go`zaligidan bahramand bo`lishiga, har qarich tuprog`i oltinga teng bo`lgan bu zamin bag`riga oshiqishlariga umid qilaman.



1-rasm. Eskiz

⁸ Buxorodagi qadimiy va zamonaviy obidalar



2-rasm. Karton nusxasining ishlanish jarayoni



3-rasm. Karton nusxasining ishlanish jarayoni



4-rasm. Fragment kartoni



5-rasm. Fragment kartoni



6-rasm. Fragment kartoni (ish jarayoni).



7-rasm. Diplom ishining rangga o`tish bosqichi. (1)



8-rasm. Diplom ishining rangga o`tish bosqichi. (2)



9-rasm. Diplom ishining rangga o`tish bosqichi. (3,4)



10-rasm. Ish jarayoni.



11-rasm. Fragment rangda boshlanishi.



12-rasm. Fragmentning rangda ishlanish keyingi bosqichi.



13.1-rasm



13.2-rasm



13.3-rasm



13.1, 13.2, 13.3, 13.4- rasmlar fragment ishlash jarayoni.



14-rasm. Fragment tugallanish bosqichida



15-rasm. Diplom ishining ishlanish bosqichi



16-rasm. Diplom ishining ishlanish bosqichi



17-rasm. Ish jarayoni



18-rasm. Diplom ishi yakunlanish bosqichida.



18-rasm Diplom ishining yakuni



20-rasm Fragmentning yakuni

XULOSA

“Biz o‘z faoliyatimizni "Buyuk kelajagimiz bugundan boshlanadi" degan shior asosida tashkil etishimiz zarur”, dedi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda prezident Shavkat Mirziyoyev.

Azal-azaldan ijodkorlar-shoirilar, rassomlar, me‘morlar xalqimiz hurmatini qozonib kelganlar. Barcha zamonlarda kishilarda ijodkorlik siri qiziqtirib keladi. Mukammal badiiy asarga qarar ekanmiz, bu asar qanday qilib yaratilganligini haqida o‘ylab qolamiz. Tabiiyki, bu narsa har birimizda izlanuvchanlik uyg‘otadi, bizda ijodkorga xos holat ro‘y beradi. Yorqin va o‘ziga xos asl badiiy obraz doimo ana shunday ta‘sir kuchiga ega bo‘ladi.

O‘rganib qolgan butun hayot tarsi harakatga keladigan, hech o‘zgarmas bo‘lib tuyulgan narsalarga nisbatan yangi qarashlar paydo bo‘lib, qaror topadi, keng qamrovli ijtimoiy o‘zgarishlar davrida ijodiy jarayonlarga qiziqish, ayniqsa, kuchayib boradi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizning eng yangi tarixi kishilar ongida o‘zgarishlar yasadi, bu avvalo yosh avlod ijodiy faolligini yanada kuchaytirdi.

Shu tufayli ham madaniy merosimiz an‘analarini tiklash, asrlar va ming yillik rivojlanish jarayonida madaniy merosimiz va jamlangan bari qadriyatlarni yangi avlodlarga bekam-u ko‘st yetkazib berish zamonimizning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Shunisi muhimki, yosh iste‘dodlar madaniy va tabiiy muhitda, o‘z yurti san‘atining asriy an‘analari va mintaqaviy xususiyatlarini o‘zlashtirib, mahalliy ustalarning tajriba va bilimlarini chuqur o‘rganib, kamol topib, quvvat olib boradilar. Natijalar- ko‘plab yosh rassomlar necha-necha xalqaro nufuzli tanlovlarning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lmoqdalar va shu orqali, o‘z iste‘dodiga, kuchlariga

ishonchi ortib, chet ellardagi tengdoshlari bilan bab-baravar Vatanlari shuhratiga shuhrat qo`shmoqdalar.

Tasvir qurishning bosqichlarini o`zlashtirib olish boshlovchi rassomga ishonch bilan uzluksiz har bir bosqichni qanday hal etishni bilgan holda ishlash imkonini beradi. Rasm ustida ishlashning amaliy tajribasini egallagan yosh rassom o`qituvchi yakuniy natijani oldindan ko`ra bilish ko`nikmasiga, ba`zilar o`ylaydigandek, har kim o`z holicha emas, balki pedagog yordamida, butu tasvir qurish jarayonining bosqichma-bosqich o`zlashtirishi natijasidagina ega bo`lishi mumkin.

Hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi mohir rassomni tarbiyalash, portret chizishga bosqichma-bosqich o`zgartirish tizimida xomaki rasmlar chizishga jiddiy e`tibor berish lozim.

Xomaki rasmlar va qisqa chizgilar boshlovchi rassomni ijobiy faoliyatga uzluksiz bog`lab qo`yadi. Ular talabani mustaqillikka va o`quv mashq tasviriy vazifalarni hal etishga o`rgatadi. Portret ishlashdan oldin albatta naturalardan ya`ni gipslardan foydalangan holda rasm ishlashi maqsadga muvofiq bo`ladi.

“Buxoro navqiron va ko`hna zamin” rangtasvir asariga qo`l urar ekanman ota yurtim jamolini o`z asarimda aks ettirishdan benihoya xursand bo`ldim. Qanchadan qancha adiblarning qalam tebratishiga, qanchadan-qancha shoirlarning ash`or bitishiga sababchi bo`lgan, ularga ilhom bag`ishlagan qadim Buxoro zaminini ko`z oldimga keltirar ekanman, bu yurtning qadamjolari yonida, viqorla turgan binolari qarshisida, har qarichidan buyuklar yetishgan oltinga teng tuprog`i ustida his etdim o`zimni. Qanchalaram baxtli zamin bu va shu baxtini ifodalovchi Humo qushi uning osmonida doimiy parvoz aylashi hisini tuydim. Bu ota makon haqida asar yaratish men uchun judayam kata BAXT! Va shu baxt menga nasib etganidan xursandman, albatta.

To`rt yillik ta`lim davrida olingan bilimlar shak-shubhasiz kelajakda oldimga qo`yadigan ijodiy vazifalarning yechimini topishda asqotishiga ishonchim komil.

Kata ijod yo`lida ustozlarim tomonidan menga berilgan maslahat, eng avvalo kasbga sadoqatni o`zida aks ettirgan shaxsiy namuna mustahkam poydevor bo`ladi deb ishonaman.

ATAMALAR

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Plafon	Plafond	Bo'yoq bilan bo'yalgan, rasmlari bilan bezatilgan, bo'yalgan shift.
Panno	Panel	Lotincha pannusidan olingan (fransuzcha panneau - mato parchasi) - bu odatiy san'at asari bo'lib, odatda har qanday devor panjarasini (devor paneli) yoki shiftni (plafond) doimiy ravishda to'ldirish uchun mo'ljallangan dekorativ belgining rasmiy ishi; bir xil maqsadda xizmat qiladigan kosmik kompozitsion, o'yma, qoziq yoki qoshiq
Mozaika	mosaic, puzzles, medley.	Mozaikaga bag'ishlangan lotin (opus) musividan ishlangan mozaika (ish) - har xil janrlarning dekorativ va amaliy san'ati va monumental san'atidir, ularning asarlari sirtga bog'lash, yozuv yozish va birlashtirish orqali tasvirni shakllantirishni nazarda tutadi (odatda, - samolyotda) rangli toshlar, smalt, keramik plitkalar va boshqa materiallar
Vitraj	stained-glass window	Bu monumental san'at, dekorativ dekorativ san'at asari yoki rangli shishadan yasalgan dekorativ belgi, yorug'lik orqali mo'ljallangan va ko'pgina me'moriy strukturalarda ochilish uchun mo'ljallangan.
Sgraffito	sgraffito, scratch-work	Italyanacha sgraffito yoki graffito (italyan graffiti) - bu turli xil rangli qatlamlarning ikki yoki undan ko'p qatlamini qo'llash orqali amalga oshiriladigan, ya'ni ma'lum bir naqshga ko'ra qisman chizish bilan amalga oshiriladigan (1). Sgraffito rasmlash texnikasi deb ataladi, chunki qatlamlarning qalinligi odatda 1 sm dan oshmaydi, bu ko'z uchun bino miqyosida deyarli sezilmaydi. Shishaning qalinligi

		2-5 mm bo'lsa, sgraffitoning bo'yoq va relyef o'rtasidagi oraliq holatga ta'siri yordam beradi.
Monumental rasm	Monumental painting	Bu me'moriy obidalar, me'moriy tuzilmalar va boshqa turg'un zaminlarda rasm. Ba'zan filial deb nomlangan, ingliz nomi (mural).
Relyef	Relief	Relief lotin tilidan "yuksaltirish" - bu shakl, sirtning asosiy qismlari, qat'iy tuproq yuzasi va rivojlanish tarixi, shakli, hajmi, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixi bilan ajralib turadigan boshqa mustahkam sayyora organlarining bir qatoridir. Musbat va salbiy shakllardan iborat. Relyef geomorfologiyani ilmiy fanini o'rganish ob'ektidir
Akademizm	Academicism	XVII-XIX asrlarda Yevropa rasmlariga yo'nalish. Akademiya klassik san'atning tashqi shakllariga sodiq qolishda davom etdi. Izdoshlar bu usulni qadimgi dunyo va Renaissance mahoratining aksi sifatida tasvirlashdi.
Modernizm	Modernism	Italiyancha modernismo - «zamonaviy trend»; Lotincha Modernus From .. - «zamonaviy, yangi» - XIX asr oxiri san'atining umumiy sohalarda - XX asr, bir belgisi bo'lgan sxematik uchun oldingi badiiy An'anaga tanaffus, yangi intilish va ehtiros sifatida qaraladi mumkin shartli shakl. Modernizmin XX asr G'arbiy Evropa madaniyati asosiy diqqat markazida bo'ldi, san'atning turli shakllarda o'zini namoyon. XX asrning ikkinchi yarmida, u izchil tanqid va boshqa badiiy tushunchalarni siqib o'rnatildi. Xususan, postmoder-nizmining mafkurasi va falsafasi.
Fantaziya	Fantasy	Yunon phantasia - "tasavvur" haqiqatga mos kelmaydigan, lekin ularning orzularini ifodalovchi shaxs yoki guruh tomonidan ifodalanadigan holatdir. Fantaziya bepul mavzuga bag'ishlanadi. Tasavvur qilish, tasavvur qilish, vakillik qilishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. <http://ziyonet.uz/ru>
2. Abu Bakr Muhammad ibn Ja`far Narshaxiy “Buxoro tarixi”
3. <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=169.0>
4. <http://buxoro.uz/post/ko'hna-va-boqiy-buxoro-11291>
5. Qahramon Rajabov, Sulaymon Inoyatov “Buxoro tarixi”
6. <https://ru.wikipedia.org>
7. <https://www.google.com>